

## **Ertangi kun bizniki, marra bizniki !**

O'zbekiston boy tarixga ega bo'lgan yosh mustaqil davlat. Uning tarixida yosh avlodning o'rni esa alohida beqiyosdir. 12 yoshidan taxtga o'tirgan, 4 yoshida savod chiqarishni boshlagan kuchli va zukko ajdodlarimiz yo'lini davom ettirgan holda, bugungi yosh avlod ham ringda o'z mushti bilan qanchadan qancha championlarni mag'lub etmoqda. Bugungi kundagi yoshlarning muvaffaqiyatiga eng asosiy sabab bu shubhasiz barcha sohalarga davlatimiz tomonidan barcha sohalarga birdek e'tibor qaratilayotganidir. Albatta, ushbu g'alabaga eltuvchi islohotlarning bosh asoschisi – barcha-barchamiz chin dildan yaxshi ko'rgan, butun xalqning hurmat-e'tiborini qozongan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib ketgan:

- “Ba'zi erkaklar birgina oilani ham zo'rg'a eplaydilar, lekin bu kichi 25 yildan beri butun O'zbekiston ahlini tinch-totuvlikda, omon-esonlikda asrab kelmoqdalar”

deb mag'rurlanib yozilgan bunday ta'riflarni ko'rmagan o'zbekistonlik bo'lmasa kerak. Darhaqiqat, mustaqilligimizning eng avvalgi kunlaridan boshlab shu kungacha xalqimiz, elimiz bir kun ham zulm ko'rgani yo'q. Har kuni ertalab munavvar tongni oilalarimiz bag'rida kutib olamiz, ota-onamiz, farzandlarimiz bag'rida nonushta qilib bo'lgach, yuzlaridan fayz yog'ilib turuvchi bobo, buvilarimizning oq fotihasini olib o'qishga, ishga jo'nab ketamiz. Kuni bo'yи zimmamizga yuklatilgan ustuvor vazifalarni ado etib kechga borib do'stlarimiz, oilamiz bilan mamlakatimizda joylashgan muhtasham istirohat bog'lari, ko'ngilochar markazlarga boramiz. Hech bir xavf-hatadan hayiqish hissi hattoki fikrimizga ham kelmaydi. Bularning barhca – barhcasi uchun biz o'zbek xalqining qaxramoni, ulug' zot, Muhtaram Prezidentimizdan minnatdormiz.

Yurtda tinchlik bo'lar ekan, barcha sohalarda rivojlanish o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilishi ajablanarli holat emas, albatta. Shu jumladan, yurtimizda avtomobilsozlik sohasi ham gurkirab rivojlanishda davom etmoqda. 90- yillarda istiqbolli rejalari belgilab olingen Asaka zavodida bugungi kunda butun dunyo tan olgan Amerikaning "General Motors" turukumiga kiruvchi Chevrolet brendi ostida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar butun respublika bo'ylab ko'chalarda

xalqimizning og'irini yengillashtirishga xizmat qilmoqda. Ha, bu aynan O'zbekistonda ishlab chiarilgan o'zimizning mahsulot !

Kelajakga umid bilan boqishdan hech charchamagan muhtaram prezidentimiz, aynan avtomobilsozlik sohasini rivojlantirish uchun ham pishiq va puxta rejalarini taylorlab qo'ygan edilar. Butun dunyodagi "General Motors" zavodlarida olib borilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, Italiyaning Turin shahrida joylashgan "Politecnico di Torino" universiteti bitiruvchi talabalari bu sohada ancha muvaffaqiyatli ish yuritmoqda edilar. Shu sabab, 2009 yili, muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti tashkil topdi va talabalarni qabul qilish boshlandi.

Universitetning oldiga qo'ygan ustuvor maqsadi – xalqaro standartlar asosida avtomobil sohasida yetakchi mutaxassislarni taylorlash, hozirgi kunda butun dunyo so'zlasha oladigan til – ingliz tilida so'zlashuvchi malakali injenerlarga ta'lif berish. Ayni paytga kelib universitet mahalliy va boshqa xalqaro universitetlar qatorida o'z mavqe'i va o'rniga ega bo'ldi. Talabalari yaratgan o'zbek tilida so'zlasha oladigan robotlari esa universitet haqiqiy yosh ixtirochilar uyi ekanligini yana bir bor isbotladi.

Shu mustaqil vatanning yosh avlodni, muhtaram Prezidentimizning suyukli nabirasi, hamda Universitetimning faol talabasi sifatida men ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishga bor bilimim va kuchimni safarbar etaman. Avtomobilsozlik sohasida O'zbekiston hali ko'p yutuqlarga, jumladan quyosh nurida harakatlanuvchi avtomobillar ishlab chiqarishga tez orada muvaffaq bo'ladi deb ishonaman. Zero biz, buyuk ajdodlarning munosib avlodlari, maqsadni keng olib yashaymiz, chunki, ertangi kun bizniki, marra bizniki !

Nodirjon Yusufov

ME – 14

+998909225557